




“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGI CHAMATKOR YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.

	O‘zbek va qozoq tillaridagi “Go‘ro‘g‘li” turkumi dostonlarida qo‘llanilgan qarindoshlik ma‘nosini ifodalovchi so‘zlar.	
15	Mohinur USMONOVA, O‘zbek va qozoq xalq ertaklaridagi turg‘un birikmalarning qiyosiy tahlili	541
16	Hayotxon SALAYEVA, Gurlan (Xorazm) shevasida polizchilikka oid xalq leksikasi xususida	544
17	Mufassal PARDAYEVA, Go‘ro‘g‘li turkum dostonlarining dastlabki variantlarida Ahmad Sardor obrazi	547
18	Серик ТУРПАНАЛИЕВ, Қабдеш жұмаділов прозасындағы төл тілдің көркемдік сипаты	551
19	Amina DEHQONOVA, O‘zbek va nemis ertaklarida xalqona an‘analar	554
20	Dilrabo KOMILOVA, Yangibozor (Xorazm) shevasidagi kiyim-kechak savdo-sotig‘ida ishlatiladigan so‘zlar	558
21	Mohinabonu YUNUSOVA, Toshkent viloyati uyg‘ur shevalarining ayrim leksik xususiyatlari	561
22	Marjona MUSULMONOVA, Boysun tumani bog‘dorchilik leksikasi	565
23	Barchinoy TOSHPO‘LATOVA, Samarqand bolalar folklorining janrlar tarkibi	565
24	Moxlaroyim NAZAROVA, Halima Xudoyberdiyeva she‘riyatida etnografik folklorizmlarning badiiy-estetik talqini	574
25	Fotima KOMILOVA, O‘zbek-turk qarg‘ishlarning mifopoetik talqini	576
26	Shohsanam NOMAZOVA, Dostonlarda obrazlar tizimi masalasi va “Sanamgul” dostonidagi obrazlar	580
27	Muhtarama MAMITOVA, Oila mavzusi bilan bog‘liq ayrim o‘zbek va turk maqollarining tipologik tahlili	583
28	Lobar QULDASHEVA, Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanishning pedagogik ahamiyati	587
29	Sunbula HABIBULLAYEVA, “Shirin va Shakar” dostonida fonetik dialektizmlarning o‘rni (qo‘llanishi)	590
30	Nilufar TURG‘UNOVA, Sirdaryo viloyatidagi Andijon shevalarining fonetik morfologik xususiyatlari	594
31	Sarvinov RAXIMOVA, G‘ijduvon sandiqsozlik so‘zlari	597
32	Aziza ELMIRZAYEVA, Usmon azim lirikasida folklor va badiiy ko‘chim uyg‘unligi	599
33	Diyora NE‘MATOVA, Folklorida til va leksika masalasi: lingvofolkloristik tadqiqotlar tarixi, nazariy asoslari va zamonaviy yondashuvlar	605
34	Hanifa XODJIYEVA, Mavsumiy marosimlar tasnifi	611
35	Husniddin AZIMJONOV, Tarixiy haqiqat va badiiy talqin uyg‘unligida bilga xoqon obrazi	614
36	Sitora O‘KTAMOVA, Hajv tushunchasining etimologiyasi va falsafiy-estetik mohiyati	617

USMON AZIM LIRIKASIDA FOLKLOR VA BADIY KO'CHIM UYG'UNLIGI

THE HARMONY OF FOLKLORE AND ARTISTIC TRANSLATION IN THE LYRICS OF USMON AZIM

Aziza ELMIRZAYEVA,
TOSHDOTAU magistranti
10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/NHVK9470

Annotation. *In our article, we will focus on the issue of the combination of folklore and artistic movement in the work of the poet Usman Azim. Based on the issue of the influence and participation of folklore in the poems, we classify them as the influence of folk epics on the poet's poems, a new approach to the idea of folk tales, and the melody of folklore songs in the poet's poems. At the same time, we will consider the use of folklore as an artistic tool by Usman Azim in expressing his feelings, and his ability to successfully use folklore elements in the depiction of his experiences.*

Key words: *folklore, artistic movement, epics, fairy tales, folk songs.*

Har bir ijodkorning o'z yo'li, boshqalardan ajratib turadigan ohangi, uslubi bo'ladi. Bu ohang orqali sho'rni ba'zan bir satridan tanib olish mumkin. Usmon Azimning shunday she'rlari borki, u sho'rga alohidalik, ijodiy ko'pqirralik bergan. Usmon Azim ijodida folklor, xususan, uning motivlari, ertak va dostonlar ohangi, xalq qo'shiqlari nafasi ufurib turgandek bo'ladi. Ayni holat she'riyatda juda ko'p uchraydi. Umuman olganda she'riyatda folklordan foydalanish jarayoni qanday kechadi? – degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu masala xususida olim L.Sharipova quyidagicha fikr bildiradi: **"Folklordan foydalanish** ijodkorning o'z maqsadi va ifoda uslubidan kelib chiqib, ixtiyoriy ravishda folklor materialini yoki folklorga xos ritm, badiiy shakl va ifoda vositalarini o'z asarida qo'llashi, folklor materialiga murojaat qilishi, undan ijodiy o'rganishidir. Bunda ijodkor xohlasa folklor materialiga qayta ishlov beradi, xohlamasa ishlov bermaydi. Qolaversa, folklordan foydalanish zaruriyatini ham har bir ijodkor o'z ijodi uchun o'zi belgilaydi. Folklordan ijodiy oziqlanish badiiy ijodning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib kelgan. Shoir va adiblar folklordan, uning mavzu va g'oyalaridan, syujet va obrazlaridan, badiiy til vositalaridan, sodda ifoda uslubidan ijodiy foydalanib, o'z asarlarining xalqchil bo'lishiga intiladilar" [Sharipova, 2008:12]. Olimaning fikriga ko'ra, folklorizmlardan foydalanish ijodkorning individual tafakkuri va badiiy mahorati, ichki kechinmalari, qarashlari hisobiga folklor material bilan uyg'un holatda folklorizm vujudga keladi. Demak, folklorizm yozma adabiyot bilan xalq og'zaki ijodining xususiyatlarini o'zida mujassam etgan badiiy-ijodiy hosila ekan.

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra Usmon Azim she'riyatida folklorizmlarga diqqat qaratishga harakat qilamiz. Shu bilan birgalikda ushbu folklorizmlarning badiiy ko'chimlar bilan uyg'unligi va biri ikkinchisini yuzaga chiqarishda ne chog'lik xizmat qilganligi masalasiga diqqat qaratamiz. Shoir ijodining boshqalarnikiga sira o'xshamaydigan, individualligi va yangicha yondashuvi nuqtai nazaridan alohida hodisa sifatida qaraladigan bir turkum she'rlari hech shubhasiz **"Baxshiyona"** turkum she'rlaridir. Ushbu turkum to'laqonli folklor ta'sirida va xalqchil ohangda yozilgani bilan qimmatlidir. Bu turkumdagi she'rlarga folklorning ta'siri xususida ozmi-ko'pmi adabiyotshunosligimizda fikrlar bildirilgan. Shu jihatdan maqolada shoirning bu turkumdan tashqaridagi she'rlarida ham folklor ta'siri va folklorizmlarni ko'rib chiqish ma'qul ko'rildi. Zotan, bunday mazmundagi she'rlar faqat bu turkum doirasida emas,

balki shoirning butun ijodi bilan chambarchas bog'lanib ketgan va istalgan she'rda bunday holatni ilg'ab olish mumkin. Kuzatishlarga ko'ra Usmon Azim ijodida xalq ertaklari, dostonlari, xalq qo'shiqlari ohangidan ta'sirlanib yangicha mazmun va ruhdagi she'rlarni yaratish folklorning boshqa janrlariga qaraganda ko'proq. Shu jihatga ko'ra shoirning ba'zi she'rlarini quyidagi uch tasnifga ko'ra tahlil qilish mumkin:

1. Xalq dostonlari namunalarining shoir she'rlariga ta'siri;
2. Xalq ertaklari g'oyasiga yangicha yondashuv;
3. Shoir she'rlarida folklor qo'shiqlari ohangi.

Birinchi tasnifdagi *xalq dostonlari* g'oyasining shoir she'rlarida ishtiroki, shuningdek, doston qahramonlarining shoir she'rlarida falsafiy ma'no kasb etishini ko'p o'rinlarni uchratamiz. Ayniqsa, "Alpomish" dostoni qahramonlari she'rda badiiy ko'chim, xususan, *metaforik obraz* yaratib kelish hodisasi ko'p uchraydi. Shoir bu qahramonlar nomini shuchaki she'rlarida o'xshatish asosida ishtirok ettirmaydi, balki, ularning dostondagi rolini real hayotdagi insonlarga gohi tenglab, gohida zidlab ko'chiradi. Masalan:

*Ketsang ham, hech qachon qaytib kelmaysan,
Elingdan olisda topshirasan jon.
"Yurt" desa, tog'lardan oshib yelmaysan –
Boysari bo'lmaysan hech qachon.*

Yuqoridagi misralarda ishtirok etgan Boysari ismi "Alpomish" dostoni qahramoni ekanligi ma'lum. Boysarining dostondagi roli nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda shoir "*Boysari bo'lmaysan hech qachon*", deya xalq orasida vatan deb, yonib-kuymagan, qalbida el-yurt ishqini bo'lmagan insonlarga yuzlanyapti. Boysari kabi o'z eli uchun umr bo'yi xizmat qilgan qahramon o'rnini qilib ko'rsatilish barobarida, juda chuqur falsafiy ma'no kasb etadi. Keyingi misralarda ham dostonning boshqa qahramonlari, xuddi shunday hayotdagi real insonlarga taqqoslanganligining guvohi bo'lamiz:

*Hech qachon erimas ko'nglingdan g'araz,
Quchmaysan qaytganni shodumon,
Qo'lingda hanjaring pinhon har nafas –
Boybo'ri bo'lmaysan hech qachon.*

Boybo'ri qahramoni orqali shoir ichida boshqalarga g'araz saqlamaydigan, rishtalarni qayta tiklay oladigan, oriyatli, kechirimli, mard insonlarni ifodalagani holda hayotda shunday insonlarning aksi bo'lganlarni, niqob ostida har doim qo'lida xanjar tutib yuradigan, oqibatsiz insonlarni nazarda tutyapti. "She'riyat shu ma'noda yurtini yovdan himoya qilgan Alpomish, To'maris, Shiroq obrazlariga murojaat qildi va ularga aloqador voqealarni eslatish orqali o'zbek xalqini kurashga chorladi" [Sharipova, 2011:117]. Mana shunday mardlik va shijoat jo'sh urgan, muhabbati, oriyati, sha'ni uchun o'zga yurtga ketgan asar bosh qahramoni Alpomish orqali qo'rqoq insonlarni shoir quyidagicha ta'riflaydi:

*Hech qachon bormaysan olis Qalmoqqa,
Makoning yetti yil kechmagay zindon,
Xo'jayin bo'lasan yurtida yaloqqa –
Alpomish bo'lmaysan hech qachon.*

"Shuni ta'kidlash joizki, 70-80-yillardagi o'zbek she'riyati epik turga mansub obrazlarni boshqa davrlardagidan ko'ra ko'proq qo'lladi. Alpomish, To'maris, Shiroq obrazlari eng ko'p stilizatsiya qilingan folklor obrazlaridan sanaladi"[Sharipova, 2011:117]. Quyidagi misralarda esa shoir yurtning or-nomusi bo'lgan ayollarni Barchinga qiyoslab, aksincha, ibo-hayodan yiroq, sadoqatsiz ayollarni Barchin bo'lolmaslikda ayblaydi:

*Hech qachon tegmaysan nomusu orga,
ULTONTOZni o'ynash tutasan, nodon.
"Otang" deb aytasan uni Yodgorga –
BARCHIN bo'lolmaysan hech qachon.*

Ammo, shoir bu fikrlar bilan cheklanmaydi. Ma'noviy silsilani yuqorilatgan holda, she'rning yakunida chuqurroq falsafiy ma'no kashf etadi:

*Hech qachon ko'nglimda tug'ilmas faxr,
Sha'ningizni qachon berdingiz qurbon?
Men ham bebaxtdirman... Siz haqda, axir,
Doston aytolmayman hech qachon.*

“Sha'nini qurbon berganlar” aslida yurtning shu doston qahramonlariga zarracha o'xshamagan vakillaridir. Qorin g'ami, o'zining manfaati yo'lida hech narsadan tap tortmaydigan insonlardir. Ularni kuylash, ular haqida doston aytish nojoizdir. Shoir bundaylar orasida o'zini doston aytolmagan bebaxt baxshiga qiyoslayapti. Demak, shoir ushbu she'rda doston qahramonlarini real hayotga ko'chirib olib o'tish orqali she'rning ma'nosini oddiy real holatda ifodalagandan ming karra ortiqroq badiiy samaraga erishgan. Shoir ijodida doston qahramonlari, ayniqsa, Alpomishning juda ko'p o'rinlarda ishlatilganiga guvoh bo'lamiz. Ularning o'ziga xos estetik vazifasi mavjud bo'lib, alohida tahlil materialini bo'la oladi.

Shu bilan birgalikda shoirning bir turkum she'rlari **xalq ertaklarining** g'oyasiga yangicha yondashuvning namunalari bo'la oladi. Shoir ba'zi ertaklarning g'oyasiga o'zining bahosini berib, ularga o'z hayotiy xulosalari bo'yicha yangi ma'no beradi. “Chumoli va ninachi” ertagini olaylik. Ertakda chumoli qishin-yozin ishlab o'z uyiga xizmat qiladigan mehnatkash jonzot sifatida keladi. Ninachi esa faqat hayotdan zavq olib yashaydigan, ertangi kunini o'ylamaydigan nodon insonlar ramzi sifatida keltiriladi. Darhaqiqat, bizning bugungi tafakkur tarzimizda ham chumoli faqat yaxshi hislatlarga boy, tinib-tinchimaydigan insonlarning metaforik obrazidir. Ammo, shoir Usmon Azimning “Chumoli haqida nutq” she'ri an'analarga moslashgan fikrimizni tamoman o'zgartirib yuboradi va bir qarashda bizning tushunchalarimizga ziddek tuyiladi. She'r yakunida esa chumolining faqat qorin g'amida yashaydigan, topganini uyiga tashiydigan, mansabini suiste'mol qiladigan insonlarning metaforik obrazi shoir tomonidan qayta yaratilinganligi anglashiladi. Bunday insonlarga nisbatan esa shoir nafratini ochiq bayon etadi:

*“Mehnatkash” deb olganing unvon,
Shoirlarning g'arib xayoli.
Mening esa, azaldan ayon
Nafratim bor senga, chumoli.*

Shu taqlid davom etadigan she'rning har bir bandida shoir chumoliga xos xususiyatlar va ularning salbiy tomoniga e'tibor qaratadi. Har bir bandeda shoir ustalik bilan badiiy ko'chimgirlarning ba'zi turlarini ishlatish orqali misralarning asl g'oyasini yanada ta'sirliroq va chuqurroq ifodalashning uddasidan chiqadi. Masalan, quyidagi to'rtlikda chumolining uyini “qorong'u uy” deya ta'riflaydi:

*G'ivirlaysan. Terga botasan.
Tirikchilik solar ne ko'yga.
Nima ko'rsang, uyga tortasan –
Uyga... Uyga... Qorong'u uyga.*

“Qorong'u uy” aslida nima ko'rsa uyiga tashiydigan, faqat qorin g'amida yashaydigan insonlarning uyini “qorong'u” deb atash, shu asosda, ularning zulmat bosgan hayotini anglatishdir. Keyingi bandlar ham xuddi shunday badiiy tasvir vositalarining zich ishtirok etishi bilan she'rning so'ngigacha qadar asl g'oyaning ochilishi va ma'no kuchayishiga xizmat qilgan. “Hasharotlar ichra sen – toshi”, “Og'iz qalbni aytish uchunmas, Ovqat uchun yaralgan go'yo”, “Xayolingda o'zing, bir o'zing, Yutmoqchisan dunyoni tamom” kabi ta'riflarni aslida odamga kelib bog'lanadigan nuqtasi quyidagi bandeda namoyon bo'ladi:

*Chorsuni-ku qo'yning (u – bozor,
O'ynar savdo ashulasiga).
Chumolilar bormoqda qator,
Idoralar mashinasida.*

Ushbu misralardan chumoli aslida insonning *metaforik obrazi* ekani anglashiladi va u bizning qarashlarimizga zid ravishda idoralar mashinasida ketayotgan, mansab kursisiga o'rnashib olib, shaxsiy manfaatlarini ko'zlayotgan insonlarning ramzidir. She'rning yakunida esa shoir biz ishyoqmas deb qabul qiladigan, ammo, hayotdan zavq olib yashaydigan ninachi – xalq ertagiga zid ravishda ijobiy ma'no kasb etadi:

*Tugayapti she'rim. Ketaman.
Uzr, jonim bo'g'zimga yetdi.
Chumolini o'ylab turing. Men
Ninachini ko'rgani ketdim.*

Usmon Azimning shu kabi xalq ertaklariga yangicha yondashuv sifatida yuzaga kelgan she'rlari talaygina. Shoirning yana shunday she'rlari borki, xalq ertaklaridan unumli foydalangani holda undagi ayrim jihatlarni she'rida ifoda etish orqali ma'noni kuchaytiradi va ular she'rga falsafiy ruh berishga xizmat qiladi:

*Bu yo'l yolg'iz emas – uchga bo'lindi..
"Borsa, kelmas" oldi mening ko'nglimni.*

Ushbu misralardan anglashilgani kabi shoir "Uch og'a-ini botirlar" ertagidagi uch yo'l motivini o'z she'rida qo'llayapti. Ertakka ko'ra, kenja botir "borsa, kelmas" yo'lni tanlaydi va uning akalariga qaraganda mard, jasur va odil ekani ayon. Demak, lirik qahramon ushbu yo'lni tanlash orqali o'zini kenja botirga o'xshatyapti. Zotan, Usmon Azim ijodida uch og'a-ini tipidagi she'rlarni ko'p uchratish mumkin. Ba'zi she'rlarda lirik qahramon ikkinchi o'g'il pozitsiyasida bo'lsa, aksariyat she'rlarida, uchinchi o'g'il sifatida gavdalanadi.

Ijodkorning ertakdagi yo'l bilan bog'liq ayrim jihatlarni she'rda ishtirok ettirishi – ertak g'oyasiga yangicha va hayotiy yondashuvi natijasidir:

*Garchi "Borsa, kelar" ayladi imo,
Menga buyurmagan qaytmoqni Xudo.*

"Borsa, kelar" yo'li sinovlarsiz, to'siqlarsiz kechadigan hayotning metaforik ramzidir. Lirik qahramon shu jihatdan ham ushbu yo'lning "imo"sga e'tibor qaratmaydi. Shoir o'z qismatini to'la-to'kis hal etishni xohlaydi:

*"Yo kelar, yo kelmas" o'yinlar mujmal,
Men birdan qismatni etmoqchiman hal.*

She'rning oxirgi satrlari esa fikrimizni boshqa tarafga yo'naltiradi va shoirning ertakga yangicha qarashini o'rta qo'yadi: "Borsa, kelmas" yo'lning umr ekanini iddao qilayotgan ijodkor, taqdirga tik qarab yashash tarafdori. Inson bu hayotda bir marta tug'ilib, bir marta o'ladi. Har bir insonning umr yo'li aslida "borsa, kelmasdir":

*Taqdirga tik qarash bandasin rasmi:
O'yla, "Borsa, kelmas" umrdir asli.*

Dastlabki misralardagi "borsa, kelar" yo'lning ma'nosida ham she'r yakunida ochiladi. Tahlil qilganimiz sinov-u to'siqlarsiz hayot aslida to'siqlarga boy bo'lishi, ba'zan inson jonidan kechib "qaytish"ni tanlashi she'r yakunida ochilyapti. Ushbu yo'l hayot sinovlariga dosh bera olmaydigan, irodasi zayif insonlarning tutadigan yo'li... Ammo, ijodkor aytganidek, bu yo'lni insonlarga Xudo buyurmagan!

Ijodkorning yana shunday she'rlari mavjudki, ularda *folklor qo'shiqlari ohangini* sezish mumkin. Bunday she'rlarda folklorning ta'siri bir qarashda ko'zga tashlanadi va biz ularda xalqona ritmni his qilamiz. "Folklor ta'siri esa ijodkorlarning xalq og'zaki ijodiga xos syujet motivlaridan, epik obrazlardan, ritm va badiiy shakllardan ilhomlanib, xalqona uslubda asar yaratishdir. Binobarin, folklor ta'siri adabiy jarayonning rivojlanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi" [Sharipova, 2008:13]. Ba'zida ertakning boshlanuvchi saj usulidagi an'anaviy qismi ijodkor she'rlarining ba'zilarida dastlabki misralar sifatida she'rni ochib beradi va o'ziga xos badiiy shakl yaratadi:

*Bor ekan-da,
Yo'q ekan.*

*Och ekan-da,
To'q ekan.
Ko'rdim,
Kездim,
Boysunday joy,
Bu olamda yo'q ekan.*

Ertaklarning an'anaviy boshlanishi sifatida ishlatilinuvcchi ushbu satrlarni shoir o'z she'rida ishtirok ettirish barobarida, o'zining tug'ilib o'sgan joyini ertagona ta'riflaydi. She'rning ohangi esa xalq qo'shiqlariga hamohang. Quyidagi she'rda esa shoir turmushni qirq boshli ajdarhoga o'xshatadi. Shu bilan birga she'r uslubi folklor qo'shiqlari uslubini eslatadi:

*Turmush – qirq bosh ajdaho:
Birini yanchib o'tdim,
Birini sanchib o'tdim –
o'ttiz sakkizi ammo,
Solarkan dahshat g'avg'o –
Sog' qo'ymadi, yutdi-yo.*

Shoir ushbu she'rda folklor qo'shiqlari ohangidan ustalik bilan foydalanyapti. Zero, she'r barmoq vaznida va folklor qo'shiqlarining asosiy qismini tashkil qiladigan yetti bog'inli tartibda, musiqiy shaklga uyg'un yozilgan. "Poetik strukturasiga ko'ra tasnifda qo'shiqlar ohangini, ya'ni yo'lini naqarotlar va takrorlar belgilab beradi" [Mirzayev, Turdimov, 2020:165]. Shoir yuqoridagi she'rda xuddi shunday takrorlardan foydalangan. She'rning davomida ham ayni holat kuzatiladi:

*Turmush – qirq bosh ajdarho –
o'ldirsam yana barpo:
g'amdan ketayin desam
Baxtga yetayin desam,
Qir boshi qirqta balo,
Yamlamasdan yutdi-yo.*

Ijodkor bu she'rda xalq qo'shiqlari ohangidan foydalanib, aslan real hayotdagi ro'zg'or tashvishida ezilib yashayotgan insonning holatini she'rga ko'chiryapti. Turmushni qirq boshli ajdarho metaforik obrazi bilan ifoda etyapti. Bunday falsafiy ruhning she'r tarkibida xalqona ohanglarda berish ta'sirni yanada kuchaytirishga xizmat qilgan. She'r yakuni ham folklor qo'shiqlari an'alariga mos:

*Turmush – qirq bosh ajdarho!
Mana, yetdi-ku fano:
o'tdim umrim tahluka,
xuddi chumoli alfuz...
Hayot – pari malika –
Tushimga kirdi, xolos.*

Hayotni "pari malika" deya ta'riflash aslida uning go'zal, ammo, u lahzalik tushda ko'rib o'tkazilayotgani uning ne chog'lik qisqa ekanining metaforik ifodasidir. She'r boshdan oxir takrorlardan iborat. "Takrorlar xalq qo'shiqlari badiiyati tizimidagi muhim unsurlardan biri hisoblanadi. Satr boshida, o'rtasida yoki oxirida kelishidan qat'iy nazar takrorlar qo'shiqdagi ilgari surilgan mazmunni ochib berishga xizmat qilish barobarida ohang va kuyning yaxlitligini ta'minlab beradi" [Mirzayev, Turdimov, 2020:169].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Shoir Usmon Azim ijodida xalq ohanglarining, folklorizmlarning mavjudligi, shu bilan birgalikda, shoirning folklor qahramon va motivlarini badiiy ko'chimlar orqali she'rlariga ustalik bilan olib kirishi tabiiy jarayon bo'lib, zo'rma-zo'raki singdirilmagan. Bu holatning tabiiyligi esa shoirning Boysun diyorida, baxshilar-u so'z

ustalari orasida o'sib-ulg'aygani bilan bog'lanadi. She'rlardagi folklorning ta'siri masalasi va ishtirokidan kelib chiqqan holda ularni xalq dostonlari namunalarining shoir she'rlariga ta'siri, xalq ertaklari g'oyasiga yangicha yondashuv va shoir she'rlarida folklor qo'shiqlari ohangi sifatida tasniflarga ajratish ijodkor she'riyatidagi folklor va badiiy ko'chim uyg'unligini yanada aniqroq va badiiyoq tarzda anglashga imkon yaratadi. Usmon Azim tuyg'ulari bayonida folklordan badiiy vosita sifatida foydalanadi, folklor elementlarini o'z kechinmalari tasvirida muvaffaqiyatli qo'llay oladi. Bu esa shoirning individual tafakkur tarzi va badiiy mahorati yuksak ekanligiga borib taqaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов У. Танланган асарлар. – Тошкент: Sharq, 2021.
2. Азимов У. Сурат парчалари. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986.
3. Азимов У. Юрак. – Тошкент: Ғафур Ғулом ННМИУ, 2022.
4. Азимов У. Фонус. – Тошкент: Шарқ, 2010.
5. Азимов У. Сўнгсўзлар. – Тошкент: Илм-зиё-заковат, 2020.
6. Mirzayev T., Turdimov Sh. va boshq. O'zbek folklori. – Toshkent: Tafakkur-bo'stoni, 2020.
7. Muxammadiyev D. Zamonaviy o'zbek she'riyatida metaforik tafakkur tabiati: Filol.fan.b.fals.d-ri (PhD)...diss. – Toshkent, 2024.
8. Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари Ўзбек шеърлятида фольклоризмлар: Филол.фан.номз...дисс. – Тошкент, 2008.
9. Шарипова Л. Ўзбек шеърлятида фольклоризм. – Тошкент: Фан, 2011.

